



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASHLARI ASOSIDA KREATIV SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

*Abdufattoyeva G.Q.*

*Andijon pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim  
kafedrasi o'qituvchisi"*

**Tayanch so'zlar:** nutq, yozma nutq, og'zaki nutq, ta'lim, motiv, pedagogik texnologiya, innovatsiya, kreativ, mustaqil.

**Ключевые слова:** речь, письменная речь, устная речь, образование, мотивация, педагогическая технология, инновация, творческий, самостоятельный.

**Key words:** speech, written speech, oral speech, education, motivation, pedagogical technology, innovation, creative, independent.

Kirish. Ma'lumki, shaxs ta'lim jarayonida tabiat, jamiyat, fikrlash va faoliyat ko'rsatish usullari haqidagi ijtimoiy muhitda ma'lum mavqeini egallashga, kasbiy faoliyatida esa muayyan natijalarga erishish imkonini beradigan bilimlar hajmini egallaydi. Bu bilimlar hayot yo'lida duch keladigan muammolarni hal etishda yordam beradi. Umumta'lim maktablari o'quvchilarni mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish jarayoni shaxsning intellektual faoliyatiga qo'yiladigan mantiqiy talab va me'yorlar mazmuni sifatida tushuniladi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash madaniyati o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadiga erishishning asosidir.

Mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq izlanishlar ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalishda mustaqil fikrlashning tashqi ko'rinishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflanadi. Ko'p olimlarning ishlari muammoni shu nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan. Ularda quyidagi g'oyalar aks ettirilgan:

mustaqil fikrlash madaniyatining xususiyatlarini bilim va uni o'zlashtirish darajasi orqali izohlash;



mustaqil fikrlash madaniyati asosini talabalarning turli muammolarni hal etishdagi muammoga oid tushunchalar yig'indisi qo'shish, mulohaza qilish, ularning o'zaro mantiqiy bog'lanishini aniqlash, bilish singari umumiy qobilyatlarini tashkil etadi.

O'quvchilar tafakkuri, bilish darajasi, o'qish amaliy mashg'ulot, mustaqil bilim olish faoliyatlari va sinfdan tashqari o'qishlarda uzliksiz va jadal ravishda rivojlanadi.

Tadqiqot metodlari va metodologiyasi. Dunyo yaralibdiki unda insonlar rivojlanish sari boradi. Bilimning poydevori maktab hisoblansa uning negizi esa boshlang'ich sinf desam mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim tizimimizda ham o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Kechagi kuni, bugungi kuni, ertangi kuni haqida sarhisob qila oladigan o'quvchilargina erkin fikr bildira olishadi. O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bu o'quvchilarni o'z fikrlarini boshqalarga yetkazib berishi va o'z g'azalar fikrini tushuna oladigan yoshlar qilib tarbiyalash va yo'naltirish desam adashmagan bo'laman. Maktab darsliklari ham o'quvchilarni erkin fikr bildirishi uchun katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining erkin fikr bildira olishlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi- yosh avlodni har tomonlama yetuk yurtimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan komil inson qilib shakllantirishdir. Komil inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. O'quvchilarni erkin fikrlashi uchun birinchi galda oilaviy muhitda erkinlik hissini uyg'otish zarur. Albatta, o'quvchi yoshlarda ertaklar, hikoyalar, rivoyatlar, afsonalar, o'qishi va o'qigan kitoblariga erkin fikr bildira olishlari kerak. Bundan tashqari sharq mutafakkirlarining me'rosi she'r va g'azallari, badiiy ijod na'munalari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari allomalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limiy qarashlariga tayanib o'qitilsa, o'quvchilarning erkin fikrlashlarini rivojlantirish yanada ijobiylik kasb etadi.

Yangi O'zbekiston bolalarini tarbiyalashda, ularni o'z vatani, ona tuprog'i va o'zbek xalqlariga sadoqatli yoshlar etib voyaga yetkazishda ona tilimizni ro'li katta. Bolalar uchun yozilgan kitoblarni, aytilgan fikrlarni xato qilib o'rgatsak ularni to'g'rilab bo'lmaydi. Bolalar uchun o'rgatilgan kitoblar, fikrlarni katta tajribali pedagog o'rgatmog'i lozim.

Bolalara dunyoni tanitishda ularni tevarak atrofdagi narsa va hodisalarga, o'simliklarga olamiga, hayvonat dunyosiga, kitoblarga, ertaklar olamiga faol munosabat ko'rsatishiga avvalo oila so'ng ta'lim muassasalarining ro'likatta ahamiyat kasb etadi. Bolalar ham narsa va hodisalarga erkin fikr bildirishi uchun



ular haqida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Bilimi bor bolalar esa qo'rqmay har qanday joyda o'z fikrlarini erkin bildira oladilar.

Bolalar maktabgacha bo'lgan davrda ijodkorlik xususiyatiga ega bo'ladilar. Avvalo, ko'rgan predmeti haqida ma'lumot so'raydi va uni yodida saqlab qoladi. Keying gal esa o'sha predmet haqida biz o'rgatgan ma'lumotni o'shanday qilib aytib bera oladi. Bu orqali bola tashqi muhitni tasavvur orqali biz o'rgatgan ma'lumotlar orqali o'rganib boradi.

Tadqiqot natijalari. XXI asrga kelib, insoniyat o'zi uchun kerakli va hammaning hayoliga keladigan deyarli barcha narsani yaratib bo'ldi. E'tibor bering, ayni vaqtda muvaffaqiyatga erishgan juda ko'plab shaxslar, bir necha dekadalar avval insonlar tasavvur ham qila olmagan g'oyalarini amalga oshirishgani tufayli shu darajaga chiqishgan. Jeff Bezos, online do'kon trendi orqali mashhur bo'ldi. Bu trend O'zbekistonga endi kirib kelmoqda. Demak, bundan shuni anglash mumkinki, kreativlik ayni damda muvaffaqiyatga erishishingiz yo'lida asosiy vositalardan biri.

Kreativlik- bir qobilyat deyish mumkin. Ammo quyida faktlar bilan kreativlik nega eng muhim omillardan biriga aylanayotganini tushuntirib o'taman.

Kreativlik- bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa ( asar, musiqa, idea) yoki jismoniy biror kashfiyot ( mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlikdir. Rus va xorijiy pedagog-psiholog olimlarning ilmiy izlanishlarini tahlil etadigan bo'lsak, ularda kreativlik shaxs ijodkorligining asosini tashkil etuvchi tushuncha sifatida talqin etilganligiga guvoh bo'lamiz;

- kreativlik qarama-qarshiliklar, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish imkoniyati;(G.Altshuller,M.Zinovkina);
- kreativlik iqtidorga bog'liq bo'lmagan holda, shaxsning barcha sohalardagi faolligi, ijodkorlikka qobilyati (N.Drujinin);
- kreativlik – individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nimalar hosil qilish qobilyati,hislati (D.Gilford);

Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajada sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Lekin tadqiqot muammosi sifatida o'rganilayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarda kreativlik qobilyatini rivojlantirish masalasi esa bu jarayonga nisbatan boshqacha yondashuvni nazarda tutadi. Bunda asosan e'tibor, jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan kashfiyotlarni emas, balki pedagogik jarayonning samaradorligi, o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro muvaffaqiyatli hamkorliklarini o'rganishga qulay sharoit yaratadigan o'qitishning yangicha shakl, metod va vositalarini izlab topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa bilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.



Pedagogik ta'lim tizimida talabalarning kreativ qobilyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o'quv jarayonini ular shaxsiga yo'naltirish nazarda tutiladi. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim tizimida gimnastik nuqtai nazarning rivojlanishi, talabalarni ahloqiy hamda kasbiy yetuklik, faollik, mustaqillik, nazariy-tahliliy faoliyatga undash imkonini beradi. Buning natijasida talabalarda o'z-o'zlarini rivojlantirish, o'z kasbiy faoliyatlarini dolzarblashtirish, yaratuvchilik, istiqboldagi pedagogic faoliyatga o'zini tayyorlash va moslashtirish kabi kompetensiyalari tarkib toptiradi.

Muhokama. Shunga ko'ra, bugungi kunda pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo'nalishlari – mavjud an'anaviy ta'lim paradigmasining obyektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyatlarni modernizatsiyalashdan iborat etib belgilanadi. Ushbu o'rinda, ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish ijodkorlik hamda fikrlash mezonlariga tayanuvchi paradigmani yaratish zarurati namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, kadrlar ta'minoti kabi jihatlarini rivojlantirilmoqda.

Pedagogik ta'lim tizimida o'quvchilarning kreativ qobilyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o'quv jarayonini ular shaxsiga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda kreativlik tushunchasi ijod, ijodkorlik tushunchasining tarkibiy qismi sifatida yoritiladi.

Xulosa. Xulosa o'mida shuni aytish joizki, oiladagi muhit, ota-onaning farzandlariga bo'lgan e'tibori, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rni, ta'lim muassasalarining o'quvchilar bilimiga, fanlarni o'zlashtirilishiga, o'quvchilar fikrini erkin bayon qila olishiga e'tibor berish kerak.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutq. // Ma'rifat. Toshkent, 2017 yil 1 iyul № 52.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yoldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009. - 352 b.
3. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o'qitish metodikasi.
4. www. Ziyonet. uz
5. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. O'zbekiston. 1998-y.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashlari orqali kreativ sifatlarini shakllantirishda o'qituvchining qanday vazifalari borligi, pedagogik texnologiyalarning o'rni.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье каковы задачи учителя в формировании творческих качеств через самостоятельное мышление в младших классах, роль педагогических технологий.

#### SUMMARY

In this article, what are the tasks of the teacher in the formation of creative qualities through independent thinking in elementary grades, the role of pedagogical technologies.